

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BARQAROR YUQORI O‘SISH SUR‘ATLARINI TA‘MINLASHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallar to‘plami

2024 YIL 28 MART

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA SERVIS KAFEDRASI

**Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori
o‘shish sur‘atlarini ta‘milashning
istiqboli yonalishlari**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(28-mart 2024-yil)

Farg‘ona - 2024

4. Djunaitov G' . N., Azimov B. F. Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati // 'SCIENCE AND EDUCATION' SCIENTIFIC JOURNAL – 2023. – №. 4. . – С. 890. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-tadbirkorlikni-davlat-tomonidan-qo-llab-quvvatlash-zaruriyati/viewer>

5. Navruz-Zoda B. N., Shomiev G. U. The different approaches of human capital formation //International Journal of Innovative Technologies in Economy. – 2017. – №. 5 (11). – С. 6-10.

6. Навруззода Б. Н., Навруззода Л. Б. Предпринимательская концепция формирования и развития человеческого капитала //Современная наука. – 2014. – №. 1. – С. 21-25.

7. Навруз-Зода Б. Н., Шомиев Г. У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала //Academy. – 2016. – №. 11 (14). – С. 19-21.

8. Навруз-Зода Б. Н. Сущность и содержание уровневого подхода к оценке конкурентоспособности экономики //Современная наука. – 2016. – №. 4. – С. 49-52.

9. Навруз-Зода Л. Б., Навруз-Зода З. Б. Повышение социального престижа предпринимательских фирм в Бухарской области //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11 (95). – С. 21-25.

HUDUDLARDA ZAMONAVIY TADBIRKORLIK VA TARMOQLI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH

Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Raxmatova Feruza Yusupjanovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi ekanligi haqida fikr yuritilgan. Tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lish shakllarini an'anaviy va zamonaviyga bo'linishi tavsiya etilgan. Bu bilab birga kichik biznes sub'ektlarining asosiy muammolari keltirilib, ular ichida marketing o'rin tutgani aytib o'tilgan. Tadbirkorlikni rivojlantirishda va ularning daromadini qo'shimcha ko'paytirishda tarmoqli marketingdan foydalanish tavsiya etilgan.*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy tadbirkorlik, an'anaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkor, kichik tadbirkor, menejer, oilaviy tadbirkor, ichki tadbirkor, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, innovatsion tadbirkor, investor, biznes-konsultant, mahallada tadbirkorlik tashkilotchisi, marketing, tarmoqli marketing.*

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va globallashuv jarayonlari tadbirkorlikning iqtisodiy hodisa sifatida rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi bo'lib, u asosan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, yalpi milliy mahsulot tarkibi va sifatini belgilaydi, raqobatni saqlashga yordam beradi va jamiyatning yangi ijtimoiy qatlamini shakllantiradi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning yuqori darajasi bozor iqtisodiyotining zamonaviy modeli uchun zaruriy shartdir, chunki u o'z ichiga ishlab chiqarish, mulkni xususiyashtirish, boshqaruv, marketing va ijodkorlik, innovatsiya va tavakkalchilik bilan bog'liq ko'plab boshqa faoliyatlarni qamrab oladi.

Hozirgi vaqtda turli kasbiy soha olimlari (iqtisodchilar, faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar va boshqalar) zamonaviy tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi roliga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

Bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan har qanday mulk shaklidagi korxonaning xo'jalik faoliyati, eng avvalo, daromad va mablag'larni investitsiyalashni ta'minlash, korxonaning mustaqilligini va rivojlanishini ta'minlash maqsadida iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish”[1] deb belgilandi. Ushbu muhim vazifani amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sub’ektlarida tadbirkorlik qobiliyatining zamonaviyl shakllarini rivojlantirishga va ularning daromadini qo‘shimcha ko‘paytirishga e‘tibor qaratish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlaridan biri ishlab chiqarishning shaxsiyl omili sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini biznes amaliyotida namoyon etib, unumli ishlata olishdan iborat. Tadbirkorlik faoliyatining o‘ziga xos tovar bo‘lmish “tadbirkorlik qobiliyati” mikroiqtsodiyotda turli shakllarda namoyon bo‘lib, ayirboshlash predmetiga aylanadi. Tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo‘lish shakllarini biz umumlashgan holda 2 ta guruhga ajratib o‘rganishni tavsiya etdik:

I. Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo‘lishining “yakka tartibdagi tadbirkor”, “kichik tadbirkor”, “menejer”, “oilaviyl tadbirkor” kabi an’anaviyl shakllari.

II. Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo‘lishining “o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar”, “ichki tadbirkor”, “innovatsion tadbirkor”, “investor”, “biznes-konsultant”, “mahallada tadbirkorlikning tashkilotchisi” kabi zamonaviyl shakllari.

1. Yakka tartibdagi tadbirkor mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviyl huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiradigan jismoniyl shaxs va endilikda besh nafargacha xodimlarni yollash huquqiga ega.

2. Kichik tadbirkor cheklangan miqdorda yollanma ishchilar mehnatidan foydalanuvchi tadbirkorlik, korxon va mikrofirmalar egasi.

3. Menejer (ingl. manager, - «boshqarish») korxon va kompaniya egalari bo‘lmagan, maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassis-yollanma boshqaruvchi.

4. Oilaviyl tadbirkor oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiyl javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi.

5. Ichki tadbirkor bu tadbirkorlik korxonasining yollanma xodimi, u biznes egasi singari barcha muammoni hal qilish uchun tavakkal va imkoni boricha sa‘y-harakat qiladi.

6. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar mehnat daromadi olishga yo‘naltirilgan, jismoniyl va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha shaxsiyl mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag‘batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan jismoniyl shaxslar.

7. Innovatsion tadbirkor yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniyl shaxslar.

8. Investor foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati ob’ektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub’ekti.

9. Biznes-konsultant biznes samaradorligini, tadbirkorlik jarayonlarining unumdorligini va kompaniyaning foydasini oshirish maqsadida tadbirkorlar va menejmentga ekspert yordam ko‘rsatuvchi.

10. Mahallada tadbirkorlik tashkilotchisi mahallada istiqomat qiluvchi aholining turli shakllardagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun munosib imkoniyatlarini yaratib berish evaziga ishsiz va kam ta‘minlangan odamlarning mehnat layoqati va tadbirkorlik qobiliyatini ro‘yobga chiqarishda ko‘maklashadigan hokimning yordamchisi.

Yuqorida tavsiflangan tadbirkorlik qobiliyatining mikroiqtisodiyotda namoyon bo'lish va ayirboshlashning 10 ta an'anaviy va zamonaviy shakllari mehnat yoshiga yetgan aholi qatlamlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, pul topish uchun qulay iqtisodiy imkoniyat hisoblanadi. Bunday band bo'lish va kambag'allikdan chiqish imkoniyatidan unumli foydalanish uchun kishi o'z tadbirkorlik fazilatlarini rivojlantirishi kerak bo'ladi.

Jahonda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholini iqtisodiy salohiyati va farovonligini oshirish, ularning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida o'rin tutadi. "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga asosan Yaponiya va Xitoy iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 60 foiz, Frantsiyada – 56 foiz, AQSh va Buyuk Britaniyada – 51 foizni tashkil etadi"[11]. Pandemiya keyingi davrda iqtisodiyot bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun xorijda signalgan zamonaviy usullar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati sifatini yuksaltirish va ularning asosiy muammolarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyoti tajribasidan ma'lumki, kichik biznes sub'ektlarining asosiy muammolari moliya, menejment va marketing bilan bog'liqdir. Xorijiy manbalar tahliliga e'tibor garatadigan bo'lsak, buni yaqqol isbotini ko'ramiz. Kichik biznes sub'ektlari uchun eng muhim bo'lgan quyidagi 10 ta biznes muammolari mavjud [9]: moliyaviy boshqaruv, sifatli jamoani yaratish, xodimlarga tibbiy yordam ko'rsatish, brendning o'ziga xosligini yaratish, o'z biznes ko'lamini kengaytirish, goidalarga rioya qilish, naqd pul oqimi bilan ishlash, samarali etakchi bo'lish, vaqtni boshqarish, qachon vakolat berish kerakligini bilish.

Mashhur kichik biznes muammolari bilan ilmiy izlanuvchi olim Ismail Ruiz tadqiqotlari davomida kichik biznes sub'ektlarining oldida turgan quyidagi muammolarni qayd etib o'tgan: Ismail Ruiz fikricha ko'pchilik kichik biznes sub'ektlarida marketing bo'limi bo'lmaydi. Kichik biznes sub'ektining umumiy ish faoliyati doirasida marketing masalalari ko'rib chiqilaveradi. Ularning savdo strategiyasida marketing uyg'unlashgan bo'ladi [10].

Marketing bo'yicha dunyo tan olingan eng nufuzli olim Filip Kotler fikricha kichik korxonalarda marketing xizmati tadbirkorning o'zining tayyorgarligiga, ya'ni marketing bo'yicha malaka hamda ko'nikmalariga bog'liq ekanligini takidlaydi. Yoki boshqa yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, bilim va malakasi yetarli bolgan iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar tomonidan marketing xizmati yo'lga qo'yilishi mumkin [2].

Bugungi kunda biron biznes va tadbirkorlikni marketing vositalaridan foydalanmasdan boshlash yoki ishga tushirishni tasavvur qilishning iloji yo'q. Darhaqiqat, ish jarayonida har bir korxonada o'z oldiga yangi ulkan maqsadlarni qo'yar ekan, bir vaqtning o'zida bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan juda ko'p muammoli vaziyatlarga duch keladi. Xizmat va tovarlarni ishlab chiqarishning o'zi yetarli emas, uni ilgari surishdan foyda olish uchun barcha ishlarni bir xil tarzda tashkil qilish kerak.

Zamonaviy tadbirkorlikda tovarlarni ilgari surish turli marketing vositalaridan foydalangan holda amalga oshirish mumkin. Biz tadbirkorlikni rivojlantirishda va ularning daromadini qo'shimcha ko'paytirishda tarmoqli marketingdan foydalanishni tavsiya etamiz.

Qarib yuz yildan beri mavjud bo'lgan tarmoq marketingi zamonaviy jamiyatimizda tobora ommalashib borayotgan tadbirkorlik sohasidir. U o'zining tashkiliy tuzilmasi va faoliyat tamoyillari bilan an'anaviy biznesdan farq qiladi. Bitta mulkdor yoki menejer o'rniga umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda ishlaydigan mustaqil tadbirkorlarning butun tarmog'i mavjud.

Ushbu turdagi biznes o'z karyerangizni qurishda e'tiborga olishingiz kerak bo'lgan noyob imtiyozlarni beradi. An'anaviy ish shakllaridan farqli o'laroq, tarmoq biznesida siz asosiy daromadingizga qo'shimcha daromad imkoniyatiga egasiz, ya'ni. ushbu turdagi faoliyatni joriy ish yoki boshqa faoliyat bilan parallel ravishda amalga oshirishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

2. Kotler, P. (1998) Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control. 9th Edition, Prentice Hall, Upper Saddle River.
3. Navruz-Zoda B. N., Shomiev G. U. The different approaches of human capital formation //International Journal of Innovative Technologies in Economy. – 2017. – №. 5 (11). – С. 6-10.
4. Навруззода Б. Н., Навруззода Л. Б. Предпринимательская концепция формирования и развития человеческого капитала //Современная наука. – 2014. – №. 1. – С. 21-25.
5. Навруз-Зода Б. Н., Шомиев Г. У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала //Academy. – 2016. – №. 11 (14). – С. 19-21.
6. Навруз-Зода Б. Н. Сущность и содержание уровневого подхода к оценке конкурентоспособности экономики //Современная наука. – 2016. – №. 4. – С. 49-52.
7. Навруз-Зода Л. Б., Навруз-Зода З. Б. Повышение социального престижа предпринимательских фирм в Бухарской области //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11 (95). – С. 21-25.
8. Xolmamatov D. H., Ximmatova B. B. KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARI FAOLIYATIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 68-74.
9. <https://www.fundera.com/blog/small-business-problems>
10. <https://blog.mailrelay.com/en/2018/10/23/10-common-marketing-challenges->
11. <https://www.un.org/ru/observances/micro-small-medium-businesses-day>. <https://www.oecd.org>.

QISHLOQ XO'JALIGIDA GENDER TENGLIGI, AYOLLARNI AGROBIZNESGA JALB QILISHNING ALOHIDA XUSUSIYATLARI

*Rajabova Mohichehra Abduxoligovna, Buxoro davlat universiteti,
Marketing va menejment kafedrası o'qituvchisi
Hasanov Fazliddin-3-1-MAR-20 guruhi talabasi.*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sohasida ayollarning ish bilan bandligini ta'minlash, mamlakatimizda qishloq ayollariga sarmoya kiritish, qashshoqlikni tugatish va oziq-ovqat xavfsizligiga erishadigan o'zgarishlarga sarmoya kiritishga doir jahon tajribasi tahlilii ma'lumotlar asosida keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** gender tengligi, oziq-ovqat xavfsizligi, FAOning gender tenglik siyosati, yalpi ichki mahsulot, mehnat bozori, iqtisodiy faoliik.*

Dunyo miqyosida qishloq xo'jaligida xotin-qizlar bandligi ulushi umumiy bandlikning yarmiga yaqinini tashkil etadi. Ayollar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida ishtirok etishda gender tafovutlari muhimligicha qolmoqda. Dunyoning har bir mintaqasida iste'molchi sifatida ayollar erkaklarga qaraganda oziq-ovqat xavfsizligi xavfi ostida bo'lish ehtimoli ko'proq. Qishloq ayollari ishlab chiqaruvchilar sifatida zarur ishlab chiqarish resurslari va xizmatlari, texnologiyalar, bozor ma'lumotlari va moliyaviy aktivlardan foydalanishda erkaklarga qaraganda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi va FAOning gender tenglik siyosatida hech kimni ortda qoldirmaslik tamoyili ustunlik qiladi. Mazkur siyosatning ustuvor yo'nalishi qishloq xo'jaligida band bo'lgan tashkilotlarining qarorlar qabul qilish jarayonlarida, shuningdek, qonunchilik, siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda ayollar va erkaklarning teng ishtirokini oshirish, ishlab chiqarish resurslari, xizmatlar, daromadlar, bozorlar va munosib bandlikdan teng foydalanish va nazorat qilish, shuningdek, ayollar mehnatini osonlashtirish bo'lib hisoblanadi.[1]

Mamlakatimizda qishloq ayollariga sarmoya kiritish qashshoqlikni tugatish va oziq-ovqat xavfsizligiga erishadigan o'zgarishlarga sarmoya kiritish hisoblanadi. Ayollar qishloq xo'jaligida ishlovchilarining qariyb yarmini tashkil etadi va ular o'z oilalarini oziq-ovqat mahsulotlariga

dasturlar, qonunchilik va investitsiyalarni rejalashtirish, ayollar va yoshlarning roli va yutuqlarini to'liq aks ettirishi hamda ularning o'ziga xos ehtiyojlari va ehtiyojlariga javob berishi muhim;

2. Qishloq ayollarining imkoniyatlari, ehtiyojlari va intilishlarini to'liq hisobga oladigan oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi siyosati va dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha mamlakatlarning milliy salohiyatini kuchaytirish;

3. Erkaklar va ayollarning tushunchalari, ustuvorliklarini aks ettiruvchi hamda adolatli va samarali milliy institutlarga asoslangan ishlab chiqarish, tabiiy resurslarni mas'uliyatli boshqarish rag'batlantirish;

4. Xizmatlarni amalga oshirishning boshlang'ich nuqtasiga aylanishi mumkin bo'lgan mahalliy muassasalarga ayollarni jalb qilishni oshirish;

5. Fermerlar - ayollar va erkaklarning ishlab chiqarish resurslari, xizmatlaridan, iqlimga mos va kam mehnat talab qiladigan texnologiyalar hamda amaliyotlardan, shuningdek, qishloq infratuzilmasiga investitsiyalardan teng foydalanish imkoniyatini oshirish;

6. Qishloq oziq-ovqat tizimlarida ayollar va yoshlarning to'liq ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, shu bilan birga ularning yanada foydali bozorlarga kirishini va mehnat bozorida munosib bandlik imkoniyatlarini oshirish uchun genderni sezgirlik zanjirlarini rivojlantirish;

7. Favqulodda vaziyatlar va inqirozlarga, jumladan, xavf-xatarga asoslangan ijtimoiy himoya va favqulodda vaziyatlarga javob berish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan holda, genderni bog'liq tayyorgarlik va javob choralari ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [1] <https://yuz.uz/uz/news/qishloq-xo'jaligida-gender-tenglegi-taminlanadi>
2. [2] <https://old.gov.uz/oz/news/view/30952>
3. [3] <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/09/population/>
4. <https://www.nationalgeographic.com/culture/article/partner-content-empowering-female-farmers#:~:text=The%20problem%3F,biggest%20roadblock%20is%20land%20rights.>
5. [file:///C:/Users/user/Downloads/qishloq-hududidagi-ayollar-daromadining-oila-daromadlaridagi-tutgan-o-rni%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/qishloq-hududidagi-ayollar-daromadining-oila-daromadlaridagi-tutgan-o-rni%20(1).pdf)
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/25/women/>
7. [file:///C:/Users/user/Downloads/gender-i-problemy-razvitiya-selskogo-hozyaystva-v-kyrgyzstane%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/gender-i-problemy-razvitiya-selskogo-hozyaystva-v-kyrgyzstane%20(2).pdf)
8. [file:///C:/Users/user/Downloads/gendernye-problemy-v-selskom-hozyaystve-azerbaydzhana%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/gendernye-problemy-v-selskom-hozyaystve-azerbaydzhana%20(1).pdf)
9. <https://www.fao.org/3/ca2678ru/CA2678RU.pdf>
10. <https://old.gov.uz/oz/news/view/30952>

BUXORO VILOYATIDA TADBIRKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Ro`zimurodova Zarina

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Olib borilgan tahlil natijalari joylarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish,

bandlikni ta'minlash, o'z mehnati bilan daromad topish istagida bo'lgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hududlarning iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash imkonini yaratdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» nomli kitobida «Kichik va xususiy biznes subyektlari soni ikki barobar ko'paydi, ushbu tarmoqdagi biznes subyektlarining 50 foizdan ziyodi keyingi 3 yil ichida tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlariga 2016-yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p kreditlar ajratildi. Chunki tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash – fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirish, o'rta sinfni mustahkamlashning eng samarali yo'lidir deb keltiriladi [1].

Darhaqiqat, yurtimizdagi mavjud iqtisodiy salohiyatni ishga tushirgan holda bu kabi faol tadbirkorlarimiz safi kengaytiriladigan bo'lsa, yaqin kelajakda mamlakatimizda ishsizlar soni keskin qisqarib, aholining o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli daromad topish imkoni paydo bo'ladi.

Bugungi kunda biznes va tadbirkorlikning ahamiyatini ko'pchilik to'g'ri tushungan va anglagan, chunki ular asosida doim ham foyda keltiruvchi ishni yo'lga qo'yish, boshqacha qilib aytganda pul to'plash yotmaydi, balki o'ziga, oilasiga, butun jamiyatga foyda keltirish birinchi o'ringa qo'yiladi.

Ma'lumki, tadbirkorlik nazariyasiga ko'ra uning quyidagi ikki modeli farqlanadi [2]:

- an'anaviy (klassik) tadbirkorlik;
- innovatsion tadbirkorlik.


An'anaviy (klassik) tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish, uning rentabelligini oshirish va xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirishda xo'jalik yuritishning an'anaviy usullaridan foydalangan holda, resurslardan maksimal darajada samara olishga yo'naltirilgan an'anaviy, konservativ tadbirkorlikdir.

Innovatsion tadbirkorlik – bu yangilik yaratish maqsadida iqtisodiyotdagi hali ma'lum bo'lmagan yoki keng tarqalmagan omillardan foydalanish yoki ularni an'anaviy omillar bilan yangicha tarzda uyg'unlashtirish orqali yangicha yondashuv asosidagi tadbirkorlik faoliyatidir.

Tahlillarning ko'rsatishicha, har 3000 ta yangi mahsulot g'oyasidan o'rtacha faqat 4 tasi yaratish bosqichiga o'tadi. Shundan 2 tasi ishlab chiqarish bosqichiga o'tadi va bor-yo'g'i 1 tasi bozorda muvaffaqiyatga erishadi. O'rta hisobda yangi mahsulot korxonaning 40 % savdosini ta'minlaydi. Kreativlik korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi [3].

Ayniqsa, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi pirovard natijada milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini belgilab beradi. Mahlumki, hududlarning tabiiy-resurs salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik sharoiti va ekologik vaziyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir biridan farq qiladi. Ayni shu holat ularda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ulardan oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Buxoro viloyatida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida xususiy tadbirkorlik va nodavlat sektori rivojlanishida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi. Viloyatda 2022 yil 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 30 222 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,6 foizga o'sgan. 2022 yil yanvar-mart oylarida 1 238 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71,5 foizni tashkil etdi. Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo (27,5 foiz), sanoat (17,4 foiz), qurilish (6,0 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (16,6 foiz), yashash va ovqatlanish (5,8 foiz) va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.



1-rasm. 2022 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi (foizda)⁴²

Xususan, 2022 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan: -sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1630,5 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 35,7 foizi) yoki 2021 yil yanvar-martga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 foizni tashkil qildi; -2920,4 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,0 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,0 foizi) tashkil qildi; -2051,8 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 30,1 foizi) o'zlashtirildi va 2021 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 172,7 foizini tashkil qildi; -1238,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 80,0 foizi) bajarildi va 2021 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 foizni tashkil qildi; -avtomobil transporti yuk aylanmasining 101,9 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 70,6 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,6 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,5 foizi) tashkil qildi; -2123,1 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 62,6 foizi) 2021 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 foizini tashkil qildi; -chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,5 foizi yoki 2904,1 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 105,8 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

Bugungi kunda viloyatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bankmoliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

⁴² Buxoro viloyatining statistik axborotnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda⁴³

	yanvar-mart 2021 yil	yanvar-mart 2022 yil
Buxoro viloyati	1731	1238
Buxoro sh.	412	288
Kogon sh.	55	49
tumanlar		
Buxoro	142	110
Vobkent	117	88
Jondor	140	109
Kogon	89	87
Olot	88	27
Peshko'	116	55
Romitan	162	139
Shofirkon	114	80
Qorako'l	79	47
Qorovulbozor	42	18
G'ijduvon	175	141

2022 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (288 ta), G'ijduvon (141 ta), hamda Romitan (139 ta), Buxoro (110 ta), Jondor (109 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor (18 ta) tumanida tashkil etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda qisqa davrda tadbirkorlikni rivojlantirishga oid keng qamrovli chora-tadbirlar bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini berayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Bugungi kunda eng asosiy masala, ushbu yo'nalishdagi qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishga asosiy e'tibor qaratilmog'i lozim. Bu esa, bevosita bugungi kunda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ortishiga olib keladi. Aholini ish bilan taminlash va uni daromadlari ko'payishining eng muhim manbalaridan biriga aylantirish hamda kichik va o'rta mulkdorlar qatlamini vujudga keltirish orqali mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. – B. 44-45.
 2. Maxmudov E.X., Isakov M.Yu. Biznes – rejalashtirish. O'quv qo'llanma – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil. - B. 11.
 3. Axmedov D.Q., Kasimov O.M. Biznes muhiti: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. - B. 16.
 4. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dok.diss.avtoref. –T.; 2017. - 5 b.
- www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

⁴³ Buxoro viloyatining statistik axborotnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

INSON KAPITALI: ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA UNING TUSHUNCHASI, O'RNI VA TO'PLASH MUAMMOLARI

Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti

To'rayeva Hurriyat To'yqulovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson kapitalining tushunchasi, uni birinchilardan bo'lib ilmiy aylanishga kiritgan olimlar, zamonaviy iqtisodiyotda uning tutgan o'rni va uni to'plashning muammolari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Inson salohiyati, inson kapitali, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, zamonaviy iqtisodiyot, postindustrial iqtisodiyot, mehnat qobiliyati, ta'lim, sarmoya kiritish, bilim, ko'nikma, qobiliyat.*

Inson salohiyati (potensial) har qanday jamiyatning asosiy boyligi va eng qimmatli resursi shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezonidir. Insonni o'rganish muammosi, inson kapitalining shakllanishi, uning jami ijodiy fazilatlar va qobiliyatlari, inson kapitaliga investitsiyalar dunyo ilmining asosiy va markaziy muammolari bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun, inson kapitalini shakllantirish va samarali foydalanish, uni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish XXI-asrda o'rganadigan dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi.

“Inson kapitali” atamasi ilk marta Nobel mukofoti laureatlati amerikalik iqtisodchi olimlar G.Bekker va T.Shults tomonidan XX asrning 50-60-yillar oxirida ilmiy aylanishga kiritilgan. (Becker, 1965; Schultz, 1961). T.Shults ta'kidlaydiki, “kambag'al odamlarning farovonligini oshirish yerdan, texnikadan yoki ularni jismoniy jihatdan ishlatishdan bog'liq bo'lib qolmasdan, ko'proq bilimlardan bog'liqdir”. U iqtisodiyotning bu sifat jihatini “inson kapitali”deb nomladi [10].

Shunday qilib, T.Shults birinchilardan bo'lib inson kapitalini postindustrial iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish omili sifatida aniqladi.

G.Bekker o'z g'oyalarini ishlab chiqishda inson kapitalini takror ishlab chiqarishda investitsiyalar samaradorligini asoslab berdi. G. Bekkerning ta'rifi ko'ra “inson kapitali – bu har bir kishida mavjud bo'lgan bilim xazinasini, malaka ko'lami va motivatsiyalar zaxirasidir.

Olim birinchilardan bo'lib inson kapitali tushunchasini mikrodarajada ko'rib chiqdi. Dastlab, inson kapitali tushunchasi ostida insonlarning mehnat qobiliyati - ta'lim va kasbiy malakasini oshiradigan insonga sarmoya kiritish sifatida tushuniladi. Keyinchalik inson kapitali tushunchasi sezilarli darajada kengaydi. Jahon banki mutaxassislarining so'nggi hisob-kitoblarga ko'ra, unga iste'mol xarajatlarini, oilalarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, shuningdek, bu maqsadlar uchun davlat xarajatlari kiritiladi [2].

Inson kapitali tushunchasining birinchi kashfiyotchilari sifatida T.Shults va G.Bekker asosiy e'tiborni inson kapitaliga qilingan investitsiyalar va ularning samaradorligini baholashga qaratdilar [8]. Bu tushunarli, chunki investitsiyalar resursni kapitalga, ya'ni oddiy tovarni kapital tovarga aylantiradi. Inson qobiliyatlarini oshirishga sarmoya kiritish mehnat unumdorligi, daromadning o'sishi shu jumladan. xodimlarning daromadlarini oshishiga olib keladi. Demak, inson qobiliyatlari yordami bilan daromadlarningning takror ishlab chiqarilishi va ularning umumiy to'planishi sodir bo'ladiki, bu ularni kapitalning maxsus shakliga aylantiradi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyasida “inson kapitali” atamasining “Har bir kishida mavjud bo'lgan va ishlab chiqarish hamda iste'molchilik maqsadlarida foydalana oladigan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar zaxirasi” ta'rifi e'tirof qilinadi. U insoniy, chunki odamlarning shaxsiyatida mujassamlangan va u kapital, chunki bo'lajak daromadlar yoki bo'lajak qoniqishlar yoxud ikkalasini ham birgalikdagi manba'sidir.

Inson kapitali – bu daromad keltiradigan inson qobiliyatlaridir (kapital – bu qo'shimcha qiymat keltiradigan qiymatdir). Uning tayanch asosini inson qobiliyatlari tashkil etadi. Inson

kapitali ishchining maxsus ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to'plangan bilimlari, ularni amalga oshirishi va mahoratini ifodalaydi.

Boshqacha qilib aytganda, inson kapitali bu odamlarning shaxsiy qobiliyat va iste'dodlarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq faoliyati uchun "mukofot jamg'armasi"dir. Ya'ni shaxs bolaligi va yoshligidan boshlab kamolotiga yetgunga qadar yig'ilgan o'zining bilim, malaka, ko'nikma va barcha qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishi evaziga kelajakda olishi mumkin bo'lgan individual daromadlaridir.

Zamonaviy iqtisodiyotda xodimlarning yaratgan moddiy boyliklarni to'plashdan ko'ra, ularning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ko'proq e'tibor beriladi. Boshqacha qilib aytganda, inson kapitalini yaratish, takror ishlab chiqarish va iste'mol qilishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning yangi turiga olib keladigan ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishi kuzatilmoqda [11].

Inson kapitali va jamiyatning intellektual boyligi kabi tushunchalar har qanday davlat uchun mamlakatning iqtisodiy o'sishi va xalqaro mehnat taqsimoti tizimida raqobatbardoshligini oshirishning hal qiluvchi omillaridan biridir. Chunki, rivojlanmagan inson kapitali hech qanday innovatsiyalarni sezmaydi. Muammolar, masalan, mamlakat boshqa iqtisodiy tizimga, boshqa, yuqori texnologik darajaga o'tganda paydo bo'ladi. Bunday sharoitda rivojlanmagan inson kapitali yanada murakkab darajadagi yangi muammolarni hal qilish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi va iqtisodiyotning o'ziga xos tormoziga aylanadi.

Inson kapitalining to'planishi - ishlab chiqarish faoliyati davomida uning qiymatini oshirish, yangi ko'nikmalar, aniq qobiliyatlarni egallash va kelajakda qo'yilgan mablag'larni qaytarish maqsadida xodimning malakasini oshirish jarayonidan iborat. Inson kapitalini to'plash jarayonlari uning butun faoliyati davomida sodir bo'ladi.

Iqtisodiyotning butun tarixiy rivojlanishi davomida ekstensiv ishlab chiqarish usulidan intensiv ishlab chiqarishga o'tishni kuzatish mumkin. Ya'ni, bir necha asrlar avval asosiy rolni asosan qishloq xo'jaligi yoki qurilishda qo'llaniladigan oddiy jismoniy mehnat o'ynagan bo'lsa, bugungi kunda axborot va texnologiya ishlab chiqarishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Mexanizatsiya va avtomatlashtirish davrida ishchilar avvalgidek ko'p sonli talab qilinmaydi, biroq jamiyatda ijodiy va innovatsion g'oyalarga ega bo'lgan insonlarga talab bir necha barobar oshdi. Faqat ular o'ziga xosligi uchun juda ko'p daromad keltirishi mumkin.

Misol tariqasida, 1998 yilda tashkil etilgan "Google" kabi ilg'or axborot texnologiyalari kompaniyasini olaylik. Uning asosiy boyligi bu ijodiy g'oyalardir. Yoki 1967 yilda asos solingan "Apple" kompaniyasi bugungi kunda dunyodagi eng mashhur va qimmat kompaniyalardan biri hisoblanadi. 2003 yilda faoliyatini boshlagan "Tesla" kompaniyasi 2019 yilda dunyoda eng yirik elektromobil ishlab chiqaruvchisiga aylandi. 1994 yilda tashkil qilingan Amazon kompaniyasi dunyodagi eng yirik onlayn sotuvchidir. Ushbu kompaniyalarning muvaffaqiyati ijodiy g'oyalar va kreativ fikrlarning qadr-qimmatini isbotlaydi.


Biz erkin shaxsga asoslangan, uning ijodiy salohiyatini ochib beradigan va texnologiya rivojini ta'minlaydigan fuqarolik jamiyati shakllanayotgan davrda yashayapmiz. Bu odamlar va tovarlarning uzluksiz harakati mavjud bo'lgan jahon bozorida ham, xodimlar va boshqaruv o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yaratishga intilayotgan alohida kompaniyada ham kuzatiladi [9].

Zamonaviy sharoitda qaror qabul qilish tezligi, xodimlarning mustaqilligi, shu jumladan yuqori darajadagi xavf va favqulodda qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalarning ahamiyati ortib bormoqda. [11].

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan uning barcha ishtirokchilarining tashabbusiga bog'liq. Har bir xodim o'z muhitida, ayniqsa, doimiy yangilanib turadigan texnik qurilmalar va texnologiyalardan foydalanishda nafaqat professional bo'lishi, balki o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi, o'z yo'lini takomillashtirib borishi, malakasini oshirishi kerak bo'ladi.

Inson kapitalini shakllantirish, uni to'plash va rivojlantirish, unga kiritiladigan investitsiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Inson kapitalini zamonaviy iqtisodiyot muhitiga moslab

yaratilish uchun fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, axborot xizmatlarning o'rni muhim (1-rasm).



1-rasm. Inson kapitalini jamg'arish manbalari

Inson kapitalining jamg'arish manbalari sifatli va to'liq taqdim etilsa, inson kiritilgan investitsiyalardan samarali va unumli foydalanib o'z insoniy kapitalini oshirsa, jamiyatda bilimli, tajribali, malakali, rivojlanayotgan zamonaviy iqtisodiyot uchun munosib kadrlar shakllanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Inson qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi har bir yosh fuqaroning shaxsiy mulki hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan manbalardan ta'limga kiritiladigan investitsiyalar misolida inson kapitalining shakllanishini oladigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning toliq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bolgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi [1]. Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasida inson kapitali takomillashtiriladi, moddiy farovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi.

Inson salohiyati, demak, kapital mamlakatning raqobatbardoshligiga hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu nafaqat ishlab chiqarish va iste'molning umumiy darajasi, balki uning texnologik va innovatsion rivojlanishi bilan ham belgilanadi.

Inson salohiyatini shakllantirish asosida, kadrlar resursi yaratiladi. Inson resurslarini rivojlantirish milliy iqtisodiyot uchun juda muhim, chunki u jamiyatning ijtimoiy infratuzilmasini va uning yo'llarini o'rganishga bevosita ta'sir qiladi, bu esa yangi kadrlar tayyorlashga yordam beradi, mehnat bozorida turli kasblarga bo'lgan talabning o'zgarishini tahlil qiladi.

Zamonaviy jamiyatda bilimi, qobiliyati va ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxs eng qimmatli resurs, hatto mamlakatning tabiiy resurs salohiyatidan yoki to'plangan milliy boylikdan ham muhimroqdir. Iqtisodiy o'sish va ilmiy-texnika taraqqiyoti tezligini aynan odamlar belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: O'zbekiston, - 2021. - Б.230.
2. Нестеров Л., Аширова Г. Национальное богатство и человеческий капитал // ВЭ, 2003. №
3. Navruz-Zoda B. N., Shomiev G. U. The different approaches of human capital formation //International Journal of Innovative Technologies in Economy. – 2017. – №. 5 (11). – С. 6-10.
4. Навруззода Б. Н., Навруззода Л. Б. Предпринимательская концепция формирования и развития человеческого капитала //Современная наука. – 2014. – №. 1. – С. 21-25.
5. Навруз-Зода Б. Н., Шомиев Г. У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала //Academy. – 2016. – №. 11 (14). – С. 19-21.
6. Навруз-Зода Б. Н. Сущность и содержание уровневого подхода к оценке конкурентоспособности экономики //Современная наука. – 2016. – №. 4. – С. 49-52.
7. Навруз-Зода Л. Б., Навруз-Зода З. Б. Повышение социального престижа предпринимательских фирм в Бухарской области //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11 (95). – С. 21-25.

8. Schultz Th. W. Investment in Human Capital. The Role of Education and Research / Th. W. Schultz. NY: The Free Press, 1971. 272 p.
9. Тростинская, В.П. Человеческий капитал современной России./В.П. Тростинская, И.Р. Тростинская.//Международные отношения и диалог культур.-2014.-№2(2013).-с.91-110
10. Паршина Н.В. Человеческий капитал: сущность, содержание, особенности // Мир современной науки. – 2013, № 3. - С. 4.
11. Хафизова, Г. Накопление и потребление человеческого капитала./Г. Хафизова.//Риск: ресурсы, информация, снабжение, конкуренция.-2011.-№4.-с.347-348

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI

Nishonboyev Doniyor Erkinjon o‘g‘li,
o‘qituvchi
Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi
Farg‘ona davlat universiteti, talaba

Milliy iqtisodiyotimizda xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borayotgani ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli tovarlar bilan to‘ldirish, zamon talablarini inobatga olgan holda xizmatlar ko‘rsatish sohasini kengaytirish, eksport tarkibida jahon bozorlarida xaridorgir, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ko‘paytirish, avvalo yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadi hamda farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘ldi.

Kichik biznes sektorining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi ko‘p jihatdan tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berdi. Harkatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi”, - degan tamoyilni amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e‘tibor qaratilgan [1].

Sanoat klasterlari, avvalo, shu tarmoq ishidagi raqobatga mahalliy va jahon bozorlarida bardosh beradi. Iqtisodiyotni innovatsion taraqqiy ettirishda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning an‘anaviy usullari etarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda, klaster nazariyasini amaliyotga tatbiq etish eng maqbul yo‘l hisoblanadi. Klasterlashtirishni korxonalar innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshligini oshirish va ularning global raqobatning kuchli ta‘siriga qarshi turishdagi milliy va mintaqaviy rivojlanish talablariga to‘la javob beradigan yangi iqtisodiy tizim deb ham qarash mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo‘lgan jami aholining 80% ko‘prog‘i xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda. Mavjud barcha xo‘jalik sub‘yektlarining 90 foizidan ortig‘ini biznes korxonalari tashkil etadi.

1-jadval

Respublikamizda jami aholining bandlik darajasi bo‘yicha ma‘lumot [8], foizda

Hududlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O‘zbekiston Respublikasi	66.6	67.1	67.7	68.2	68.7	69.2	67.4	68.1	66.0	67.0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	57.4	57.7	57.9	58.1	58.1	58.3	62.9	62.9	62.0	61.1
Andijon	69.0	69.9	70.8	71.5	72.3	73.0	69.6	70.1	66.5	68.2
Buxoro	74.1	74.4	74.0	73.4	72.9	72.5	70.7	69.3	68.3	67.2
Jizzax	56.0	56.5	57.3	58.1	59.1	60.0	61.6	67.1	66.2	67.5
Qashqadaryo	61.2	61.8	62.5	63.3	64.3	65.4	64.8	63.9	60.9	62.2
Navoiy	74.7	74.1	73.6	73.2	72.8	72.4	69.2	69.5	66.8	68.3
Namangan	57.2	58.1	59.3	60.5	61.9	63.4	63.8	66.4	65.0	65.5

TEMIROV SH.P.	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari rivojlanishida innovatsion boshqaruvdagi muammolar va ularning yechimlari.....	275
ABDULLOYEV A.J., OSTONOV M.R.	
Oilaviy tadbirkorlik hududlarni rivojlantirish omil sifatida.....	278
NAVRUZ-ZODA L.B., RAXMATOVA F.YU.	
Hududlarda zamonaviy tadbirkorlik va tarmoqli marketingni rivojlantirish.....	281
RAJABOVA M.A., HASANOV F.	
Qishloq xo'jaligida gender tengligi, ayollarni agrobiznesga jalb qilishning alohida xususiyatlari.....	284
NAVRUZ-ZODA L.B., RO`ZIMURODOVA Z.	
Buxoro viloyatida tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish asosida xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish imkoniyatlari.....	287
NAVRUZ-ZODA L.B., TO`RAYEVA H.T.	
Inson kapitali: zamonaviy iqtisodiyotda uning tushunchasi, o'rni va to'plash muammolari.....	291
NISHONBOYEV D.E., DJURABOYEVA D.M.	
O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi.....	294
XAZRATQULOV S.S.	
Tadbirkorlikda innovatsion faollikni samarali boshqarishda xorij tajribasidan unumli foydalanish.....	298
XAZRATQULOV S.S.	
Kichik biznes sub'ektlari faoliyatini amalga oshirishni tashkil etish yo'nalishlari.....	300

**5-SHO'BA. HUDUDLARNING MUHANDISLIK-KOMMUNIKATSIYA VA IJTIMOIIY
INFRATUZILMA TIZIMINI HAMDA XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS
SOHALARINI RIVOJLANTIRISH**

УБАЙДУЛЛАЕВ М.Б., КЕНЖЕЕВА М.А., АСКАРАЛИЕВ Ш.А., ИСМАИЛОВА А.Т.	
К вопросам некоторых аспектов проблем безработицы в Кыргызстан: реалии и перспективы.....	302
MIRZAYEV A.T., KARIMOVA D.SH.	
Turistik destinatsiyalar shakllanishining nazariy-uslubiy jihatlari.....	308
KALANDAROV F.	
Crowdfunding in tourism: systematic literature review.....	313
ASRAQULOV A.S.	
Turistik korxonalar faoliyat ko'rsatkichlari mavsumiy tebranishlarini tekislash.....	319
MIRZAYEV A.T., KARIMOVA S.U.	
Turistik destinatsiyalar faoliyatini rivojlanishiga konsensual yondashuvlar.....	323
G'AFUROVA SH.K.	
Otmalarda ta'lim sifatini boshqarish tizimini modellashtirishning uslubiy yondashuvlari va dastklari.....	327
ZAYLOBITDINOVA H.X.	
Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda xizmatlar sohasining o'rni va roli.....	330
IBRAYIMOVA D.A.	